



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

Elektron nashr. 368 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoira Azimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta’minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li	
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta’minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta’sirini ekonometrik tahlil qilish.....	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o‘zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G‘iyosaliyevich	
Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	
Теоретические подходы к определениям агрессий социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей	128
Алимова Райхона Баходировна	
Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
Komilov Umidjon Normurod o‘g‘li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari	143
Nematulloev Suxrob Sobirovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	148
Kamola Xaydarova	
“Sibir daryolarining burilishi” loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili	153
Mahmudov Nosir Mahmudovich	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli	159
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises	165
Khalilov Bekzod Akhmatovich	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
Mirtursunova Dinara Anvarovna	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
Tangriyev Izzat Raxmatullayevich	
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....	181
Erkayeva Barno, Xushvaqtoev Ramziddin	
O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish	186
Nodirov Azizxon Asrorovich	
Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari	192
Bexzod Qo'ziboev	
Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста	197
С.С. Убаева	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati	201
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari.....	206
Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna	
Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili	210
Baqoyev Husan Nuriddinovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	216
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Qishloq xo'jaligini «yashil» iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati.....	221
Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda “yashil investitsiyalar” dan foydalanishning xorij tajribalari	225
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna	
Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.....	230
Raxmonova Feruza Musaqlonova	
Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni.....	234
Mirzaxajeva Shaxzoda Shuxratovna	
Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlilikka ta'siri.....	240
Karshiyev Adham Anvarovich	
Kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy metodologik jihatlari.....	245
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Aliyev Maqsudbek Erkinovich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	251
Talapova Nargiza Baxriddinova	



“Deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari”	255
Saidbekova Feruza Anvarbek qizi	
Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining roli va imkoniyatlari	258
Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li, Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	
Анализ показателей развития зелёной химии по всему миру и в узбекистане за последние десять лет	262
Фозилова Фирангиза Комиловна	
Tijorat banklarining o‘zbekiston respublikasi iqtisodiyotiga ta’siri	270
Masharipov Rasulbek Jo‘rabekovich	
Biznes birlashuvda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish yo‘nalishlari	273
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi, Xayitboyeva Laylo Oybekovna, Mirzarayimov Sardorbek Ravshanovich	
O‘zbekiston respublikasida pul-kredit siyosatining maqsadi	277
Adilov Zuxriddin Marip o‘g‘li	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish va bozorlararo aloqalarining statistik o‘zgarish tendensiyalari	281
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Iqtisodiy bilimlarni shakllanishi va rivojlanishi	286
Po‘latov Abdulloh Xolxo‘jayevich	
Теоретические основы эффективного управления финансовыми ресурсами предприятий с государственной долей (на примере узбекистана)	291
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
Robototexnika asoslari va maktab ta’limida qo‘llanilishi	298
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o‘g‘li	
Sun‘iy intellektlar yordamida o‘quvchilarni hayotiy faoliyat ko‘nikmasini shakllantirishi	303
Mirxasilova Zulfiya Kochkarovna, Abdurahmanova Ozoda Djo‘rayevna, Kurbanov Azimjon Jo‘raboy o‘g‘li	
Levi tengsizligi uchun A.N. Kolmogorov teoremlari	316
Saypiddinov Shukrullo Sadrdinovich, Baxramov Rustamjon Qambarali o‘g‘li	
Rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish afzalliklari	320
Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich	
O‘zbekiston respublikasining mdh mamlakatlari bilan tashqi savdo faoliyati tahlili: o‘zgarish tendensiyalari va istiqbollari	326
Ilyosov Asrorjon Axrorjon o‘g‘li, Abdullaev Alisher Maxmudovich, Tuxtasinova Muxayyo Mirzasultonovna	
Elektron tijoratni rivojlantirishning xorij tajribasi	330
Madieva Zuxra Iskandarbekovna	
Inson resurslarini o‘rganishning asosiy yondashuvlari: mohiyat-ta’rifiy tahlil	336
Bakirov Qobiljon Mamatyusupovich	
Bandlikni ta’minlashda davlat tomonidan institutsional muhit yaratishning roli	340
Dilorom Tojiboyeva, Umida Ravshanovna Anvarova	
Mamlakatimizda islom moliyasini rivojlantirish maqsad va choralari	346
Xoliyovov Xomid Boynazarovich	
Разработка экспертной системы для оценки финансового состояния предприятия	352
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Farg‘ona vodiysi viloyatlarida kichik biznes ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi: panel regressiya tahlili	362
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi	



FARG'ONA VODIYSI VILOYATLARIDA KICHIK BIZNES KO'RSATKICHLARINING O'ZGARISHI: PANEL REGRESSIYA TAHLILI

Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

muhabbatxontojiyeva11@gmail.com

ORCID: 0000-0002-5228-6923

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot Farg'ona vodiysining Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida kichik biznes rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini o'rganishga qaratilgan. Tahlil uchun kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi (YHM) ulushi, bandlikdagi, eksportdagi va asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi kabi indikatorlar tanlandi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va viloyat statistika boshqarmalarining rasmiy ko'rsatkichlariga asoslangan. Tadqiqotda uch bosqichli statistik tahlil yondashuvi qo'llanilib, avvalo o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsiya tahlili orqali baholandi. Shundan so'ng, hududlar kesimida kichik biznes ko'rsatkichlaridagi farqlar ANOVA usuli yordamida aniqlandi. Yakunda esa, panel ma'lumotlar asosida tuzilgan ko'p omilli regressiya modeli orqali kichik biznesning YHMdagi ulushiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlab berildi. Tadqiqot natijalari Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi kichik biznesning iqtisodiy faolligi va hududlararo farqlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi hamda mintaqaviy siyosatni shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, bandlik, investitsiya, eksport, YHM, hududlar, farqlar, Farg'ona, panel ma'lumotlar.

Abstract: This study examines the main directions of small business development in the Fergana Valley, specifically in the Fergana, Andijan, and Namangan regions. Selected indicators for analysis include the share of small businesses in gross regional product (GRP), employment, exports, and investments in fixed capital. The data is based on official statistics from the State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics and regional statistical departments. A three-stage statistical analysis approach was applied in the study: first, the relationship between variables was assessed through correlation analysis; then, regional differences in small business indicators were identified using the ANOVA method. Finally, a multivariate regression model based on panel data was constructed to determine the key factors influencing the share of small businesses in GRP. The study results provide a deep analysis of the economic activity of small businesses and interregional disparities in the Fergana Valley and have practical implications for shaping regional policy.

Key words: small business, employment, investment, export, GRP, regions, disparities, Fergana, panel data.

Аннотация: Настоящее исследование направлено на изучение основных направлений развития малого бизнеса в Ферганской долине, включая Ферганскую, Андижанскую и Наманганскую области. В качестве индикаторов для анализа выбраны доля малого бизнеса в валовом региональном продукте (ВРП), занятости, экспорте и инвестициях в основной капитал. Данные основаны на официальной статистике Государственного комитета Республики Узбекистан по статистике и региональных управлений статистики. В исследовании применён трехэтапный статистический подход: сначала взаимосвязь между переменными была оценена с помощью корреляционного анализа, затем различия показателей малого бизнеса по регионам были выявлены с использованием метода ANOVA. В заключение, на основе панельных данных была построена многомерная регрессионная модель для выявления основных факторов, влияющих на долю малого бизнеса в ВВП. Результаты исследования позволяют провести углублённый анализ экономической активности малого бизнеса и межрегиональных различий в областях Ферганской долины, а также имеют практическое значение для формирования региональной политики.

Ключевые слова: малый бизнес, занятость, инвестиции, экспорт, ВРП, регионы, различия, Фергана, панельные данные.

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'lib, u mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YalIM), bandlik, eksport va investitsiya jarayonlarida muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish” asosiy maqsadlardan biri etib belgilangan hamda



bu maqsadni amalga oshirish uchun qator vazifalar joriy etilgan [9]. Xususan, hududiy darajada kichik biznes subyektlarining iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini o'rganish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bu borada Farg'ona vodiysi – ya'ni Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari – iqtisodiy faolligi va aholining tadbirkorlik salohiyati bilan ajralib turadi.

Kichik biznes subyektlari hududiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, har bir viloyatda kichik biznes ko'rsatkichlarining YHMga qo'shgan hissasi turlicha bo'lishi kuzatiladi. Bu holat mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarning sabablari va kichik biznes indikatorlarining YHMga ta'sirini statistik jihatdan baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqotda Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi, bandlik, eksport va investitsiyadagi ulushi kabi asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ko'p omilli regressiya modeli orqali kichik biznes indikatorlarining YHMga ta'sirini aniqlash hamda viloyatlar kesimidagi tafovutlarni baholashdan iborat. Shuningdek, ushbu ish natijalari hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydali bo'lishi mumkin. Statistik tahlil metodlari asosida asosiy iqtisodiy bog'liqliklar ochib berilib, kichik biznesning mintaqaviy YHMdagi rolini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda kichik biznes subyektlarining hududiy rivojlanishga ta'siri masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mahalliy investitsiyalarni jalb etishda muhim omil hisoblanadi [2]. Thorsten Beck va Asli Demircug-Kunt ta'kidlaganidek, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun moliyaga kirish imkoniyati ularning o'sishidagi asosiy cheklovlardan biridir. Moliyaviy va institutsional rivojlanish bu cheklovlarni kamaytirishga yordam berib, kichik va o'rta korxonalarining tashqi moliyaviy resurslardan foydalanish qobiliyatini oshiradi. Natijada, turli o'lchamdagi firmalar o'rtasidagi raqobat sharoitlari yanada tenglashadi, bu esa mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va kichik biznesning samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hududiy rivojlanish nuqtai nazaridan olib qaraganda kichik biznes subyektlarining hududiy taqsimoti daromadlar notekisligiga, bandlik darajasiga va umumiy iqtisodiy faollikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi [7]. Rodriguez-Pose ta'kidlaganidek, mintaqaviy siyosatlar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular faqat yirik investitsiya loyihalariga emas, balki ilgari e'tibor berilmagan joylarda istiqomat qiluvchi aholining imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilishi lozim. Bu qarash O'zbekistondagi iqtisodiy rivojlanishda hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish, jumladan Farg'ona vodiysidagi kichik biznesning rivojiga qo'shimcha turtki berish zarurligini ko'rsatadi.

Hududlarning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda davlat investitsiyalarining mintaqalar kesimida oqilona taqsimlanishini tahlil qilish uchun tizimli yondashuvlardan foydalanish muhim [6]. D.Luca o'z tadqiqotida davlat investitsiyalarini ijtimoiy-iqtisodiy (masalan, ishlab chiqarish infratuzilmasi va sog'liqni saqlash) hamda siyosiy omillar (saylovdagi partiyalarni qo'llab-quvvatlash darajasi) bilan bog'liq holda regressiya asosida o'rganadi. Unda NUTS III darajasida tahlil olib borilib, bu investitsiyalar taqsimoti uchun dolzarb ma'muriy birlik sifatida baholanadi. Tadqiqotda siyosiy va iqtisodiy omillar o'rtasidagi murakkab bog'liqlik statistik usullar orqali chuqur tahlil qilinadi.

Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarning asosiy sababi sanoat salohiyatining nomutanosib joylashuvidir [5]. Livchits Rossiyada sanoat tarmoqlarining joylashuvi iqtisodiy faollikka qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib, resurslarga boy hududlarda iqtisodiy harakatchanlik yuqoriligini, boshqa hududlarda esa deindustrializatsiya xavfi mavjudligini aniqlagan. U hududlararo tafovutlarni kamaytirish uchun infratuzilmani rivojlantirish va sanoatni diversifikatsiya qilish lozimligini ta'kidlaydi.

Samarali hududiy boshqaruv tizimi esa iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish va izchil o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba asosida optimal boshqaruv modellari ishlab chiqilishi zarur. Mahalliy boshqaruvni kuchaytirish, investitsiyalarni samarali yo'naltirish va iqtisodiy resurslarni adolatli taqsimlash hududiy tengsizliklarni kamaytiradi [4]. Lambisia tadqiqotida ham hududiy boshqaruvning o'sishga ta'siri, infratuzilma sarmoyalari va hududiy siyosat strategiyalarining dolzarbligini yoritiladi.

V. Suteuning tadqiqotlarida malakali ishchi kuchi, qulay narx-sifat nisbati va qulay geografik joylashuv kabi omillar tufayli Ruminiya innovatsiyalar va texnologiyalar markaziga aylanganligi va bu holat dasturiy ta'minot ishlab chiqish sohasining yalpi ichki mahsulot o'sishi, eksport hajmining oshishi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi ijobiy ta'sirini kuchaytirayotganligini ta'kidlangan [8].

Porter tomonidan ilgari surilgan raqobatbardoshlik bosqichlari nazariyasiga ko'ra, mamlakatlar va mintaqalar o'z iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab omillarga asoslangan, samaradorlikka asoslangan va innovatsiyalarga asoslangan bosqichlarga bo'linadi. Har bir bosqichda kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi roli va raqobatlashish mexanizmi farq qiladi [3]. Dastlabki bosqichda ko'proq o'z-o'zini band qilish va kichik, rasmiylashtirilmagan faoliyatlar ustun bo'lsa, rivojlangan bosqichlarda innovatsiyaga asoslangan, xizmat ko'rsatish sohasiga



yo'naltirilgan va rasmiylashtirilgan tadbirkorlik ustunlik qiladi [1]. Farg'ona vodiysining turli hududlarida aynan shu bosqichlar o'rtasidagi tafovutlar ko'zga tashlanadi. Ayrim tumanlarda hali ham omillarga asoslangan model ustun bo'lib, informal tadbirkorlik keng tarqalgan. Boshqalarida esa samaradorlik yoki innovatsiyaga yo'naltirilgan yondashuvlar kuzatilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma'lumotlar va ko'rsatkichlar

Tadqiqotda 2010–2023-yillar oralig'ida Farg'ona vodiysining Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlaridagi kichik biznes rivoji o'rganildi. Tahlil uchun indikatorlar sifatida quyidagilar tanlandi:

- Kichik biznesning mintaqa Yalpi ichki mahsulotdagi (YHM) ulushi (%);
- Kichik biznesning Bandlikdagi ulushi (%),
- Kichik biznesning Eksportdagi ulushi (%),
- Jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi (%).

Ma'lumotlar rasmiy statistika manbalaridan olingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va tegishli viloyat statistika boshqarmalari hamda rasmiy O'zStat portali kabi ishonchli manbalar asosida yig'ilgan.

Tahlil usullari

Tadqiqotda uch bosqichli statistik tahlil yondashuvi qo'llanildi:

Korrelyatsion tahlil. Dastlab, o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik darajasi Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali aniqlandi. Ushbu bosqich kichik biznes ko'rsatkichlari va iqtisodiy natijalar o'rtasidagi dastlabki statistik munosabatlarni o'rganishga xizmat qildi.

ANOVA (dispersion) tahlili. Keyingi bosqichda, viloyatlar kesimida kichik biznes ko'rsatkichlaridagi farqlarni aniqlash uchun bir omilli dispersiya tahlili (ANOVA) usuli qo'llanildi. 1-jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, YAIM ulushi ($F = 9.32$; $p = 0.0005$), bandlik darajasi ($F = 25.05$; $p < 0.0001$) va eksport ulushi ($F = 9.44$; $p = 0.0005$) bo'yicha statistik ahamiyatli farqlar mavjud. Investitsiya ko'rsatkichida esa farq ahamiyatli emasligi aniqlangan ($F = 1.39$; $p = 0.2606$).

Regression tahlili. Tadqiqotda kichik biznesning mintaqaviy yalpi hududiy mahsulotdagi (YHM) ulushiga ta'sir etuvchi omillarni baholash maqsadida panel ma'lumotlar asosida ko'p omilli regressiya modeli qurildi. Quyidagi chiziqli model asosida regressiya tahlili bajarildi:

$$YHM_{it} = \beta_0 + \beta_1 Bandlik_{it} + \beta_2 Eksport_{it} + \beta_3 Investitsiya_{it} + \beta_4 dummy_Fergana_i + \beta_5 dummy_Namangan_i$$

bu yerda, natijaviy o'zgaruvchi:

i-viloyatning t-yildagi kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi;

mustaqil o'zgaruvchilar:

i-viloyatning t-yildagi kichik biznesning bandlik ulushi;

i-viloyatning t-yildagi kichik biznesning eksportdagi ulushi;

i-viloyatning t-yildagi kichik biznesning investitsiyalardagi ulushi

mintaqaviy farqlarni aks ettiruvchi qiyosiy indikatorlar. Andijon viloyati bazaviy mintaqa sifatida olingan.

Umuman olganda, mazkur tahlil kichik biznes subyektlarining Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi o'sish sur'atlari, investitsion faollik va iqtisodiy ta'sir ko'rsatkichlarining batafsil ko'rinishini beradi hamda hududlararo siyosat va boshqaruv qarorlarini takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korrelyatsion tahlil. Tadqiqot doirasida Farg'ona vodiysi hududlarida kichik biznesning turli iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi bilan uning hududiy yalpi ichki mahsulotdagi (YHM) hissasi o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsion tahlil yordamida baholandi (1-jadval).

1-jadval. Korrelyatsiya matritsasi (n=42)¹

O'zgaruvchilar	YHM	Bandlik	Eksport	Investitsiya
YHM	1.0000			
Bandlik	0.7136	1.0000		

1 Muallif ishlanmasi



Eksport	0.6606	0.3574	1.0000	
Investitsiya	0.2548	0.1352	0.0617	1.0000

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, YHM bilan Bandlik o'zgaruvchisi o'rtasidagi korrelyatsiya juda yuqori ($r = 0.7136$) va bu ular o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini bildiradi. Bu holat kichik biznes subyektlarining bandlikdagi ulushi ortgani sari ularning YHMdagi hisyasi ham ortishini anglatadi. Shuningdek, Eksportdagi ulush bilan YHM o'rtasida ham sezilarli ijobiy korrelyatsiya mavjud ($r = 0.6606$), bu kichik biznesning eksport faoliyati iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganligini ko'rsatadi. Investitsiya bilan YHM o'rtasidagi bog'liqlik nisbatan zaif ($r = 0.2548$) bo'lib, bu ko'rsatkich o'zgaruvchilar o'rtasida uncha kuchli bo'lmagan, ammo ijobiy yo'nalishda harakat mavjudligini bildiradi.

Korrelyatsion tahlil natijalari kichik biznesning Bandlik, Investitsiya va Eksportdagi ulushi YAIMdagi hissasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu natijalar regression tahlil natijalari orqali yanada mustahkamlandi.

ANOVA tahlil. Regression tahlildan oldin kichik biznesning hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlash maqsadida Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari uchun ANOVA (dispersion tahlil) tahlili o'tkazildi. Ushbu tahlil orqali kichik biznesning YHMga qo'shgan hisyasi, bandlik darajasi, asosiy kapitalga investitsiya ulushi va eksportdagi ulushi bo'yicha hududlar kesimidagi tafovutlar baholandi (2-jadval).

2-jadval. ANOVA tahlili natijalari (viloyatlar kesimida)²

O'zgaruvchi	N	R ²	Adj R ²	Root MSE	F qiymat	Prob > F
YHM	42	0.3233	0.2886	4.23801	9.32	0.0005
Bandlik	42	0.5622	0.5398	1.39485	25.05	0.0000
Investitsiya	42	0.0666	0.0188	7.57908	1.39	0.2606
Eksport	42	0.3262	0.2917	19.3918	9.44	0.0005

Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha natijalar viloyatlar o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farq mavjudligini ko'rsatdi ($F(2, 39)=9.32$; $p<0.001$). Bu esa, Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida kichik biznesning YHMdagi ulushi farqlanishini anglatadi.

Bandlik ko'rsatkichi bo'yicha ham viloyatlar o'rtasida yuqori darajadagi farq aniqlangan ($F(2, 39)=25.05$; $p<0.001$). Bu kichik biznes subyektlarining bandlikka ta'siri hududlar bo'yicha sezilarli darajada farq qilayotganini bildiradi.

Biroq, asosiy kapitalga investitsiya ulushi bo'yicha natijalar viloyatlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli emasligini ko'rsatdi ($F(2, 39)=1.39$; $p=0.2606$). Bu kichik biznes investitsiyalarining taqsimoti hududlar kesimida unchalik farq qilmasligini bildiradi.

Eksport ulushi bo'yicha esa sezilarli farq mavjudligi aniqlangan ($F(2, 39)=9.44$; $p<0.001$). Bu kichik biznes subyektlarining eksportdagi ishtiroki viloyatlar bo'yicha bir xil emasligini ko'rsatadi.

Ushbu tahlillar kichik biznes subyektlarining iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri hududiy kontekstdan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi mumkinligini tasdiqlaydi. Natijalar asosida viloyatlardagi kichik bizneslarni rivojlantirish strategiyalari hududiy xususiyatlardan kelib chiqib ishlab chiqilishi lozim degan xulosa qilish mumkin.

Regression tahlil. Kichik biznes faoliyatining yalpi hududiy mahsulotdagi (YHM) ulushiga ta'sir etuvchi omillar ko'p omilli regressiya modeli yordamida baholandi. Baholash natijasida quyidagi tenglama hosil qilindi:

$$YHM_{it} = -85.626 + 1.798 Bandlik_{it} + 0.075 Eksport_{it} + 0.134 Investitsiya_{it} + 3.446 dummy_{Fergana_i} + 2.495 dummy_{Namangan_i}$$

Ushbu modelga ko'ra, kichik biznesning umumiy bandlikdagi ulushi 1 foizga oshganda, YHMdagi ulushi o'rtacha 1.80 foiz punktga oshishi kuzatilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 5% darajada ahamiyatli ($p < 0.001$) hisoblanadi. Kichik biznesning eksportdagi ulushi 1 foizga oshganida YHMdagi ulushi o'rtacha 0.075 foiz punktga ortishi aniqlangan ($p = 0.002$), bu esa eksport faoliyatining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, investitsiyalar ulushi ham ijobiy va statistik ahamiyatli bo'lib chiqdi ($p = 0.021$). Ya'ni, investitsiyalar oshishi bilan kichik biznesning YHMdagi ulushi sezilarli ravishda ortadi.

Hududiy farqlarni aniqlash uchun modelga qo'shilgan dummy o'zgaruvchilar ham statistik ahamiyatga ega bo'lib, Farg'ona viloyatida (Andijon bilan solishtirganda) kichik biznesning YHMdagi ulushi o'rtacha 3.45 foiz punktga, Namangan viloyatida esa 2.49 foiz punktga yuqori ekani aniqlandi.

2 Muallif ishlanmasi



Modelning umumiy aniqlik darajasi yuqori bo'lib, $R^2 = 0.76$, ya'ni model YHMdagi o'zgarishlarning 76 foizini tushuntirib bera oladi. Breusch–Pagan testi orqali gomoskedastiklik sharti ($p = 0.93$) va Ramsey RESET testi orqali modelda muhim o'tkazib yuborilgan o'zgaruvchilar yo'qligi ($p = 0.258$) tasdiqlandi. Bu esa modelni ishonchli va iqtisodiy izohga ega ekanligini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval. Regressiya natijalari³

O'zgaruvchi nomi	Koeffitsiyent ()	Standart xatolik	t-statistika	P-qiyamat	95% ishonch oralig'i
Bandlik	1.7979	0.3201302	5.62	0.000	[1.149 ; 2.447]
Eksport	0.07516	0.0229871	3.27	0.002	[0.029 ; 0.122]
Investitsiya	0.13422	0.0555534	2.42	0.021	[0.022 ; 0.247]
dummy_Fergana	3.4458	1.515833	2.27	0.029	[0.372 ; 6.520]
dummy_Namangan	2.4947	1.213766	2.06	0.047	[0.033 ; 4.956]
Konstant (α)	-85.626	26.58724	-3.22	0.003	[-139.548 ; -31.705]
Kuzatuvlar soni (N)	42				
R²	0.763				
Korreksiya qilingan R ²	0.730				
Modelning umumiy F-statistikasi F(5, 36) Prob > F	23.15 0,0000				
Root MSE	2.612				

Model sifatining bahosi. Diagnostika tahlillariga ko'ra, VIF qiymatlari 1.09 dan 3.14 gacha, o'rtacha VIF = 2.11. Bu multikollinearlik muammosi yo'qligini bildiradi. Shapiro-Wilk testi natijalariga ko'ra $p = 0.55065$ qoldiqlar normal taqsimlangan. Breusch–Pagan testi $p = 0.9326 \rightarrow$ dispersiya barqaror ekanligini ko'rsatdi. Ramsey RESET testi $p = 0.2580$ ga ko'ra modelda muhim o'tkazib yuborilgan omil yo'qligi taxmin qilinadi (4-jadval).

4-jadval. Model diagnostik testlari natijalari⁴

№	Test nomi	Ko'rsatkichlar	P-qiyamati	Xulosa
1	Multikollinearlik (VIF)	O'rtacha VIF = 2.11, eng yuqori = 3.14	–	Multikollinearlik yo'q
2	Normal taqsimot (Shapiro–Wilk)	$W = 0.97706$, $z = -0.127$	0.55065	Qoldiqlar normal taqsimlangan
3	Gomoskedastiklik (Breusch–Pagan)	$\chi^2 = 0.01$	0.9326	Dispersiya barqaror (heteroskedastiklik yo'q)
4	Modelning to'liqligi (Ramsey RESET)	$F(3,33) = 1.41$	0.2580	Tashlab ketilgan muhim omillar yo'q, spetsifikatsiya to'g'ri.

Model natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning bandlikdagi ulushi, eksportdagi ulushi hamda jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi uning YHMdagi ulushini sezilarli darajada belgilab beradi. Ayniqsa, bandlik omili kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, mintaqaviy tahlillar kichik biznesning YHMdagi ulushi bo'yicha viloyatlar o'rtasida statistik farq mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu tahlillar kichik biznesning hududiy iqtisodiy faolligini tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot Farg'ona vodiysi viloyatlarida kichik biznes subyektlarining yalpi hududiy mahsulot shakllanishiga ta'sirini statistik jihatdan baholashga qaratildi. Empirik tahlillar shuni ko'rsatdiki, kichik biznesning bandlikdagi va eksportdagi ulushi YHMga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, bandlikdagi ulushning ta'siri eng yuqori bo'lib, bu kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi muhim o'rnini tasdiqlaydi. Eksport faoliyatining ham YHMga ijobiy ta'siri aniqlangan bo'lsa-da, investitsiya ko'rsatkichining nisbatan pastroq ta'siri kichik biznes subyektlarida investitsion faollik yetarli emasligini anglatadi.

3 Muallif ishlanmasi

4 Muallif ishlanmasi



Ko'p omilli regressiya modeli yordamida aniqlangan natijalar kichik biznes subyektlarining yalpi hududiy mahsulotga qo'shayotgan hissasini oshirishda bandlik va eksport salohiyatini rivojlantirish muhim omillar ekanini ko'rsatdi. Hududlar kesimidagi farqlar esa, kichik biznesga oid siyosat va rag'batlantirish choralarning viloyatlardagi amaliy samarasi turlicha bo'layotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Bandlik salohiyatini kengaytirish: Kichik biznes subyektlarining bandlikdagi ulushini oshirish uchun mehnat resurslaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan dasturlarni kengaytirish, shu jumladan, kasb-hunarga o'qitish va qayta tayyorlash markazlarini ko'paytirish lozim.

Eksportga yo'naltirilgan kichik biznesni rag'batlantirish: Eksport faoliyatini rivojlantirish orqali hududiy YHMga hissa qo'shishni oshirish uchun eksport qiluvchi kichik korxonalarni soliq imtiyozlari, bojxona yengilliklari va logistika infratuzilmasi bilan qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Investitsiya muhitini yaxshilash: Kichik biznes subyektlarida investitsion faollikni kuchaytirish uchun mahalliy va xorijiy investorlar uchun kafolatlangan huquqiy muhit yaratish, kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish va grant dasturlarini kengaytirish zarur.

Hududiy xususiyatlarni hisobga olgan strategiyalar ishlab chiqish: Har bir viloyatdagi kichik biznes subyektlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, sektorlar kesimidagi muvozanatli rivojlanishni ta'minlovchi hududiy strategiyalar ishlab chiqilishi kerak [10].

Statistik monitoring va baholash tizimini kuchaytirish: Kichik biznesning YHMga qo'shayotgan hissasini aniq baholash uchun muntazam statistik monitoring tizimini takomillashtirish va ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish lozim.

Umuman olganda, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan strategik yondashuvlar hududiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar mamlakatda barqaror va muvozanatli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Acs, Z. J., Desai, S., & Hessels, J. (2008). Entrepreneurship, economic development and institutions. *Small Business Economics*, 31(3), 219–234. <https://doi.org/10.1007/s11187-008-9135-9>
2. Beck, T., & Demirguc-Kunt, A. (2006). Small and medium-size enterprises: Access to finance as a growth constraint. *Journal of Banking & Finance*, 30(11), 2931–2943. <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2006.05.009>
3. Davies, Howard & Ellis, Paul. (2000). Porter's Competitive Advantage Of Nations: Time For The Final Judgement?. *Journal of Management Studies*. 37. 1189 - 1214. 10.1111/1467-6486.00221.
4. Lambisia, A. W. (2022). Regional economic development (pp. 101–119). Routledge eBooks. <https://doi.org/10.4324/9781003201892-9>.
5. Livchits, V. (2023). Regional differences in the Russian Federation: An empirical analysis of the influence of territorial localization of industry sectors on the level of regional economic activity. *Ekonomika i Matematicheskie Metody*, 59(3), 77. <https://doi.org/10.31857/s042473880026994-2>.
6. Luca, D., & Rodríguez-Pose, A. (2015). Distributive politics and regional development: Assessing the territorial distribution of Turkey's public investment. *Journal of Development Studies*, 51(11), 1518-1540. <https://doi.org/10.1080/00220388.2015.1028536>.
7. Rodríguez-Pose, A. (2018). The revenge of the places that don't matter (and what to do about it). *Cambridge Journal of Regions, Economy and Society*, 11(1), 189–209. <https://doi.org/10.1093/cjres/rsx024>
8. Suteu, V. (2023). A Study of Eastern Europe's Innovation Revolution: Spotlight on Romania and UiPath's Unicorn Journey. *Open Journal of Applied Sciences*, 13(08), 1363–1369. <https://doi.org/10.4236/ojapps.2023.138108SCIRP+2ResearchGate+2>
9. Tojiyeva, M. M. (2023). Kichik biznesni rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyati. *Qo'qon Universiteti xabarnomasi*, 9, 126-130.
10. Tojiyeva, M. M. (2022). Худудий иқтисодиётни ривожлантиришда кичик бизнеснинг аҳамияти. In 3rd German Conference-2022, a conference for the future graduates and educators. Berlin, Germany July 30th.
11. Tojiyeva, M. (2024). Katta ma'lumotlar tahlilida ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning qo'llanilishi. *University Research Base*, 268-272.09:34
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). Hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar to'plami (2010–2024). *Stat.uz*. <https://stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>